

**TIBBIYOT OLIY O'QUV YURLARIDA TALABALARNING CHET TILIDAGI
KASBIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH UCHUN INGLIZ TILI
DARSLARINI TASHKILLASHTIRISH**

*Dastenova Firusa Andreevna
Tayanch doktorant,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti*

Tibbiyot oliy o'quv yurtlarida talabalarning chet tilidagi kasbiy kompetensiyasini shakllantirish raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Ingliz tili mukammal egallagan tibbiyot xodimlarini etishtirishda chet tili o'qituvchilaridan tinimsiz mehnat va ko'p vaqt talab qiladi.

P.I. Obratsov va O.Yu. Ivanovalarning yozishicha, o'qitish samaradorligini ta'minlovchi navbatdagi shart – o'qituvchi va talabalarning chet tilini kasbiy yo'naltirilgan o'qitish modelini ta'lim jarayonida amaliy qo'llashga tayyorligidir.

Chet tilini kasbiy yo'naltirilgan o'qitish jarayonining samaradorligini belgilovchi asosiy omil - bu, birinchi navbatda, yuqori kasbiy mahorati bilan ajralib turadigan o'qituvchining shaxsiyati. [1;116].

Kasbiy yo'naltirilgan chet tillarini o'qitish hozirgi kunda ta'limni yangilashning ustuvor yo'nalishi sifatida e'tirof etilgan. Umuman o'quv jarayoniga va chet tilini o'qitishga yangicha qarash zarur.

Chet tilidagi muloqot mutaxassislarning kasbiy faoliyatining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Pedagogik ilmiy-metodik tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, chet tilini o'qitishning son-sanoqsiz uslubiy yo'nalishlari va texnologiyalari mavjud. Nolingvistik universitetlarda chet tillarini o'qitishdan maqsad kelajakdagi kasbiy faoliyatda chet tilidan amaliy foydalanish uchun etarli darajaga erishishdir [2;123-124].

Bizning tadqiqotimiz esa tibbiyot oliy o'quv yurtlarida talabalarni kasbga yo'naltirilgan ingliz tili darslarining samaradorligini oshirish uchun kuyidagi takliflarni inom etadi, ya'ni ingliz tili bo'yicha darsliklarni talabalarning ehtiyojlariga va ularning mutahassisligi bo'yicha tanlanishni, ingliz tili mashg'ulotalari tilning to'rtta ko'nikmasini o'z ichiga olgan topshiriqlar bilan boyitilishini, darslar ohirida talabardan o'tilgan darsga bo'lgan fikrlari inobatga olinib va darslar shunga moslashtirilib o'tilishini, talabalarni til bilish darajasiga muvofiq guruhlariga bo'lishni, guruhlarda talabalar sonini kamaytirishi, qo'shimcha ingliz tili to'garaklarini tashkillashtirish, ingliz tili xonalarini zamonaviy jihozlash, yengil va qulay atmosfera yaratish, ingliz tili kechalarini, ingliz tili haftalarini, milliy va chet el bayramlarini ingliz tilida tashkillashtirishni, tez-tezdan tibbiy ingliz tili o'qituvchilarini maxsus tajriba almashuv yoki chet el mutaxassislari seminar treninglariga qatnashtirish kabi ilojlar ko'rishni tavsiya qiladi.

Chet tilidagi kasbiy kompetensiyani shakllantirishda tibbiyot talabalarining mutahassislik fanlaridan matnlar tuzilib, ularni oson va engil tushiniladigan qilib har xil interaktiv mashqlar bilan, autentik materiallar bilan, talabalarning so'z boyligini oshirishga yordam beradigan mashqlar, ularga motivatsiya berib, matnlardagi iboralar, tibbiy terminlarga yo'naltirilgan topshiriqlar bilan bezatish, audio va video materiallaridan foydalanib ingliz tilini o'rgatish muhimdir.

Chet tili o'qituvchilari uchun bunday darslar o'tishi uchun bir qancha imkoniyatlar mavjud:

- matn bilan talabalarni tanishtirishdan oldin ularning diqqatini jamlash uchun dars mavzusiga bog'liq rasmlar, savollar, matnning mavzusini taxmin qilish kabi vazifalar bilan boshlashi mumkin;
- matnlar ixtisoslik fanlar o'qituvchilari bilan maslahatlashgan holda, ya'ni ularning kalendar tematik rejalariga binoan tanlanib tuzilishi mumkin;
- dars mavzularidagi asosan talabalarning kelajakdagi kasbiga zarur bo'ladigan qobiliyatni shakllantirish uchun ingliz tilida dialoglar, rolli o'yinlar, kasallik tarixini yozish, tashxis qo'yish kabi vazifalar foydalanilishi ahamiyatli;

- har bir mavzuda talabalarning soʻz boyligini oshirishni tekshiradigan nazorat ishlarni olib boorish lozim;

-Nazorat ishlari sinonim, antonim, tarjima, zamon topish, kategoriyalarga boʻlish, soʻz maʼnosini ingliz tilida topish, test kabi vazifalar bilan oʻtkazilishi mumkin;

Bunday mashqlarni bajarish tibbiyot talabalarining ingliz tilini oʻrganishga qiziqishini oshiradi va motivatsiya beradi.

Ammo xamma vaqt ham talabalar uchun tanlangan mavzular topshiriqlari hamma guruhga ham qiziqarli boʻlmasligi mumkin, sababi bu holat ularning sharoitlaridan kelib chiqishi mumkin. Shuning uchun, pedagog muntazam ravishda talabalarning aktiv va passivligiga, darsga eʼtiborini his qilib, dars jarayonini talabalarning holatiga moslashtirib improvizatsiya qilishi maqsadga muvofiq boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1 П.И.Образцов ва О.Ю. Иванова. Профессионально-ориентированное обучение иностранному языку на неязыковых факультетах вузов. ОПЕЛ 2005. 116 b.
- 2 Д.Д.Матухин. Профессионально-ориентированное обучение иностранному языку студентов лингвистических специальностей. Науки и образования 123 -124 b
- 3 Khodjaniyazova, U. K. . (2021). SIMILARITIES AND DIFFERENCES OF SPOKEN AND WRITTEN LANGUAGE. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(08), 20–23. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-02-08-06>
4. Ходжаниязова , У. (2023). Воздействие эмоционального компонента на процесс обучения иностранному языку. Общество и инновации, 4(9/S), 15–18. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss9/S-pp15-18>

O'ZBEKISTON SHAROITIDA UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMI ORQALI YOSHLARNING MA'NAVIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH

Ergashbayev Shohbozbek

Namangan Davlat Pedagogika Instituti doktranti

Anotatsiya: Maqolada O'zbekiston sharoitida uzluksiz ta'lim tizimi orqali yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish masalasi tahlil qilinadi. Maqola yoshlarning ma'naviy rivojlanishida ta'limning o'rnini, uzluksiz ta'limning barcha bosqichlari orqali ma'naviy qadriyatlarni o'rgatishning ahamiyati hamda ta'lim tizimining ijtimoiy va pedagogik jihatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Uzluksiz ta'lim, yoshlar ma'naviy dunyoqarashi, ta'lim tizimi, ma'naviy rivojlanish, pedagogik yondashuvlar, qadriyatlar, ijtimoiy ta'lim, O'zbekiston, xalqaro tajriba.

Kirish. O'zbekistonda ta'lim tizimining rivojlanishi, ayniqsa yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Hozirgi kunda ta'lim tizimi faqat ilmiy bilimlarni emas, balki yoshlarning ma'naviy qadriyatlarini ham o'rgatish orqali ijtimoiy barqarorlik va insonparvarlikni ta'minlashga qaratilgan. Maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi, aynan yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishda o'zining o'rnini va ahamiyatiga ega. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi islohotlari so'nggi yillarda jiddiy o'zgarishlarga yuz tutdi. 2020-yilda Prezidentning "Ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari to'g'risida"gi qaroriga asosan, ta'lim jarayonini uzluksiz va sifatli shakllantirishga katta e'tibor qaratilgan[1;3]. 2023-yilda O'zbekistonning maktabgacha ta'limga qamrab olish darajasi 74,4 foizni tashkil etdi, bu ko'rsatkichni 2026-yilga borib 80 foizga oshirish rejalashtirilgan. Biroq, bu yutuqlarga erishish uchun ta'lim sifatini oshirish va yoshlarni ma'naviy tarbiyalashda yangi pedagogik metodlarni joriy etish zarur. Uzluksiz ta'lim tizimi yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishning muhim omili sifatida, ularning ijtimoiy qadriyatlar va me'yorlarni anglashga yordam